



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING
FARMOYISHI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 13 - yanvar

2-8-121-F/22

Termiz shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 73-moddasiga muvofiq hamda Termiz shahar hokimining o‘rinbosari K.Ashurovning 2022-yil 12-yanvardagi 5-sonli bildirgisini inobatga olib:

1. Termiz shahar mahalliy budjeti ijrosi jarayonida shakllangan zaxira jamg‘armasi hisobidan Termiz shahar hokimligiga O‘zbekiston Respublikasining tarixiy sanalarini nishonlash maqsadida, 14-yanvar - “Vatan himoyachilari kuni”, 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni”, 21-mart - “Navro‘z” umumxalq bayrami, 1-sentabr - “Mustaqillik” bayrami va 1-oktabr - “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayramlari munosabati bilan tashqi reklama va targ‘ibot bannerlari bilan bezash ishlari natijasida **“Reklama Termiz Nur” MCHJdan hosil bo‘lgan kreditor qarzdorlikni qoplash xarajatlari uchun 150 000 000 (bir yuz ellik million) so‘m mablag‘ yo‘naltirilsin.**

2. Termiz shahar Moliya bo‘limi (**A.Safarqulov**) Termiz shahar hokimiyatining xarajatlar smetasiga tegishli tartibda o‘zgartirish kiritish topshirilsin.

3. Termiz shahar hokimligi bosh hisobchisi (**O.Xayitov**) ajratilgan mablag‘larning qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta‘minlasin.

4. Termiz shahar bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi (**M.Shaymardanov**) ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari **G'.Elamanov** va shahar hokimining o'rinbosari **K.Ashurov** zimmasiga yuklansin.

Termiz shahar hokimi v.v.b



Elamanov G. A.